



NAMANGAN VILOYATINING

SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022-YIL YANVAR-MART







Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar-mart)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3390,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 108,5 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (79,9 %) ni tashkil etdi.



B– Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat
D–Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan ta'minlash;
kanalizatsiyatizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI*% da (2022- yil yanvar-mart)




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning –38,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,

chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 2,5 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 2,4 % ga o‘shishi kuzatildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining -74,2 % ga kamayganligi kuzatildi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da (2022- yil yanvar-mart)




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,1 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

(yil boshidan I- III oylar, % da)

2021- yil, % da

2022- yil, % da






Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2022- yil yanvar-mart)

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Shagʻal , ming t.	0,0	0,0	0,0




Ishlab chiqaradigan sanoat (2022- yil yanvar-mart)



2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2708,7 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,9 % ini tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da (2022- yil yanvar-mart)






O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2021- yilning yanvar-mart oylarida - 1,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 7,0 % (6,8 %), o'rta-quyi texnologiyali - 11,6 % (11,4 %) va quyi texnologiyali - 79,9 % (79,9 %) ni tashkil etdi.

Yuqori texnologiyali



O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali**Quyi texnologiyali**


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 40,3 % (2021-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 20,0 % (2021-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,5 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,6 % (2021-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 143,2 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,2 % (2021-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 76,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 % (2021-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,2 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da**
(2022- yil yanvar-mart)


2022 yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,3 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan -29,5 % ga kamaygan), 5,7 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (29,5 %) ishlab chiqarilib o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Yumshoq bug'doy va spelta uni



Paxta tolasi



O'simlik yog'i




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish (2022- yil yanvar-mart)

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	21,7	15,3	-6,4
Aroq – ming litr 100 % spirt	0,0	0,0	0,0
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	0,0	0,0	0,0
Vino, ming litr	0,0	0,0	0,0
Un, ming tonna	32,3	30,5	-1,8
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	4,4	5,7	1,3



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (2022- yil yanvar-mart)



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 644,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (19,0 % ini) tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 38,3 % ga o‘sishi kuzatildi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yil boshidan I-III oylar, % da)

2021- yil, % da

2022- yil, % da




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	1730,1	1470,8	-259,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	30,0	24,3	-5,7




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish






Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yil boshidan I-III oylar)



**2021
yilda**

**2022
yilda**



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	18,1	21,9	3,8


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so‘m	2,8	2,0	-0,8
Shahar xo‘jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar, mlrd. so‘m	5,9	5,4	-0,5
To‘qimachilik chiqindilari, tonna	0,0	0,0	0,0
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	0,0	0,0	0,0

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 21,0 % ga ortganligi, shahar xo‘jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 8,5 % ga, oqava suvlarni shlami 28,6 % kamayganligi kuzatildi.




Iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1801,9 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 108,4 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 53,1 % ni tashkil etdi.





Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 40,3 % ni, shuningdek, Namangan tumani 9,8 % ni, To'raqo'rg'on tumani 9,6 % ni, Chust tumani 9,1 % ni, Mingbuloq tumani 7,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (108,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mingbuloq (151,1 %), Uchqo'rg'on (113,9 %), Yangiqo'rg'on (112,3 %), To'raqo'rg'on (108,6 %), Chortoq (108,6 %) tumanlarida tumanlarida qayd etildi.



1661,7 mlrd. so'm
2021- yil yanvar-mart

1801,9 mlrd. so'm
2022- yil yanvar-mart




o'sish sur'ati

mlrd. so'm


Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2022 yilning yanvar-mart

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 37,9 % ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 13,4 % ni, Chust tumani 12,2 % ni, Mingbuloq tumani esa 9,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Mingbuloq (147,9 %), Namangan (128,4 %), Yangiqo'rg'on (121,3 %) va Norin (117,0 %) tumanlarida qayd etildi.




Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2022- yilning yanvar-mart)

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 45,6 % ni, shuningdek Namangan tumani 13,2 % ni, Uchqo'rg'on tumani esa 10,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq (177,6 %), Chortoq (139,7 %) va Chust (120,3 %) tumanlarida qayd etildi.



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (3 259,1 ming so'm), Namangan shahrida (1 826,0 ming so'm), Uchqo'rg'on (1 303,0 ming so'm) va Namangan (1 298,6 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 154,0 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda. Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (183,1 ming so'm), Chortoq (281,5 ming so'm), Pop (385,9 ming so'm) va Norin (581,5 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 35,7 % i) hamda To'raqo'rg'on (22,5 %), Namangan tumani (7,1 %) va Uchqo'rg'on tuman (6,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Eng past ko'rsatkich esa Yangiqo'rg'on (1,2 %) hamda Chortoq (1,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.





**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
2022- yilning yanvar-mart oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1275,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,6 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqoʻrgʻon (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Mingbuloq (90,1 %) va Uychi (60,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, eng kichkina ulush Toʻraqoʻrgʻon (11,9 %), Uchqoʻrgʻon (15,1 %), Kosonsoy (29,6 %) va Chust (30,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra)


Bugungi kunda viloyatda 7 250 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 716 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 37,5 % i) Namangan shahriga, 562 tasi (7,8 %) Uychi tumaniga, 550 tasi (7,6 %) Kosonsoy tumaniga, 539 tasi (7,4 %) Namangan tumaniga, 526 tasi (7,3 %) Chust tumaniga, 466 tasi (6,4 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



faoliyat yuritayotgan

yangi tashkil etilgan



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘shish sur‘atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 163 ta loyiha bo‘yicha 209,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 2,3 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022-yil yanvar-mart oylarida 676 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o‘rinlari soni 517 taga ko‘paydi. Shu bilan birga, 2021-yil yanvar-mart oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining 1,5 martaga ortganligi kuzatildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

	2021-yil yanvar-mart	2022-yil yanvar-mart
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	99	163
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	57	77
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so‘m</i>	101,0	209,6
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh dollar</i>	1,5	2,3
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, <i>birlik</i>	159	676